

"O'zkimyosanoat" DAK Innovatsiya yarmarkasi ishida faol qatnashdi

// 27.05.2015

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/innovatsiya-yarmarkasi-ishida-faol-qatnashdi>

"O'zkimyosanoat" DAK korxonalari shu yil 19-21 may kunlari "O'zekspomarkaz"da o'tkazilgan VIII Respublika innovatsiya g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmakasi ishida faol ishtirok etdi.

Yarmarkaning kimyo sanoati shu'basida kompaniya korxonalari tomonidan 2014 yilda o'zlashtirilgan va joriy yilda ishlab chiqarilishini rejalashtirilgan mahsulotlar namunalari, 2015 yil innovatsiya loyihalari hamda "O'zkimyosanoat" DAK korxonalarining innovatsiya ehtiyojlari bo'yicha materiallar namoyish etildi.

Yahlangan yo'llarni erituvchi, mineral o'g'itlarning yopishqoqligiga qarshi va quvvurlar ichini tozalash reagentlar, «POLYPAC-UZ» polimer reagenti, "FERFLEX" kley, kaliy sulfati, murakkab azotli-fosforli-kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyalar yarmarka qatnashchilarining katta qiziqishiga sabab bo'ldi.

Yarmarka davomida 1 518,0 mln. so'mlik 18 shartnomalar tuzildi.

Ushbu tadbir yakuni bilan "O'zkimyosanoat" DAK VIII Respublika innovatsiya g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmakasi ishida faol ishtirok etgani uchun faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Toshkent Davlat texnik universiteti qoshidagi "Magistr" ilmiy -ishlab chiqarish muassasasi bilan hamkorlikda yaratilgan "Ammiakli selitranning yopishqoqligiga qarshi reagenti" "Sanoat" nominatsiyasida eng yaxshi innovatsiya ishlanmasi deb topildi.

"O'zkimyosanoat" DAK matbuot xizmati